QISHLOQ XO‘JALIGIDA LOGISTIKA XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH METODLARI VA SAMARALI TA‘MINOT ZANJIRI MODELI.....	1037
Olimova Bahora Shuxratovna	
INNOVASION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI.....	1042
Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT BAZASI BARQARORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMIL SIFATIDA FOIZ SIYOSATI VA UNING AMALIY JIHATLARI.....	1047
Axmedova Dilafro‘z Elshodovna	
B2BDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBALAR.....	1053
Abdubotirova Madinaxon	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИННОВАЦИОННО - ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ.....	1059
Баходирова Хилола Баходировна	
RAQOBATBARDOSH MAHSULOT ISHLAB CHIQRISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYASIDAN FOYDALANISH.....	1063
Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, Abdurazakova Diyora	
ENERGIYA XARAJATLARINI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY SAMARASI.....	1070
Urmanbekova Iroda Farxodovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF REMOTE BANKING SERVICES IN THE CONTEXT OF BANKING TRANSFORMATION .....	1075
Jabborov Bahriddin Rashidovich	
MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY-XO‘JALIK FAOLIYATINI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH TARTIBI.....	1079
G‘ofurov Iskandar Abduraxmonovich	
BANKLARNING INVESTITSIYA RISKLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH YO‘LLARI .....	1084
Yuldashev Erkin Xusanovich	
MA‘LUMOTLAR BAZASINING RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAGI AHAMIYATI.....	1090
Maxamadiyev M. M.	
УСТОЙЧИВОСТЬ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ: АНАЛИЗ СТРАТЕГИЧЕСКОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ АКИБ «ИПОТЕКА-БАНК» ПОСЛЕ ВХОЖДЕНИЯ В OTR GROUP.....	1095
Каримова Нуржахон Олим кизи	
O‘ZBEKISTON OLIY TA‘LIM MUASSASALARIGA XORIJLIK TALABALARNI JALB ETISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1101
Sharopova Nafosat, Xolmamatov Diyorbek	
DAVLATNING IJOBIY IMIJINI YARATISHDA TURIZM VA XALQ DIPLOMATIYASINING STRATEGIK O‘RNI .....	1108
Kasimova Zilola G‘ulomiddin qizi	
JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUASSASALARIDA MOLIYAVIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	1116
Toshmurodov Abdurauf Ravshanovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ТОПЛИВНО-ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА УЗБЕКИСТАНА – 2025.....	1122
Ш.К.Жалилов	
“O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING O‘RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI” .....	1126
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
MAMLAKATDA INVESTITSIYA JARAYONLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1130
Xusanov Durbek Nishanovich	
TURIZM XIZMATLARI TUSHUNCHASI VA ULARNI INNOVATSION TASHKIL ETISHNING IQTISODIY MOHIYATI.....	1138
Najmidinov Azizbek Bahrom o‘g‘li	



MINTAQAVIY IQTISODIYOTDA TURISTIK INFRATUZILMANI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI.....	1143
<b>Xalmirzayev Axmadjan Axunovich, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi</b>	
O'ZBEKISTONDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING HOLATI VA TENDENSIYALARI.....	1149
<b>Ahmedov Shermuhammad Omonjon o'g'li</b>	
MARKETING KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQUISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI .....	1156
<b>Akramov Toxir Abdiraxmanovich</b>	
SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI .....	1161
<b>Adashev Azimjon Urinboyevich</b>	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI .....	1165
<b>Abdunazarova Dilshoda Akromovna</b>	
INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISHDA BOSHQARUV HISOBİ AXBOROTINING AHAMIYATI .....	1170
<b>Xushvaqtova Nozanin Nurbek qizi</b>	
OLIY TA'LIM TIZIMIDA INTEGRATSIYA JARAYONLARINI AMALGA OSHIRISH SHAKLLARI VA ULARNING TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDAGI AHAMIYATI.....	1177
<b>Ismoilova Feruza Kubaymurodovna</b>	
EKOMARKETING STRATEGIYALARI ORQALI BARQAROR RIVOJLANISHGA ERISHISH .....	1182
<b>Qo'ziyev Jaloladdin Alisher o'g'li</b>	
ENSURING INNOVATIVE ECONOMIC SECURITY IN THE KHOREZM REGION: WASTE RECYCLING AND CIRCULAR ECONOMY .....	1186
<b>Mdraximova Shohista Bahrom qizi</b>	
KICHIK BIZNES FAOLIYATINI BAHOLASH ASOSIDA SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1191
<b>Mavrulov Ravshan Nematjonovich</b>	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA ISLÖM MOLIYASINI JORIY QILISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASIDAN FOYDALANISH.....	1195
<b>Sultonov Baxtiyor Baxodirovich</b>	
MINTAQAVIY IMIJNI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	1201
<b>Duschanov Alisher Sherzod o'g'li</b>	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING IQTISODIY MEXANIZMI .....	1206
<b>Opaev Bysen Aymanovich</b>	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KICHIK BIZNESNI INVESTITSION KREDITLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH.....	1212
<b>Yuldashev Fozil Turapovich</b>	
YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI.....	1218
<b>M.M.Muminova</b>	
ИНТЕГРАЦИОННОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ОПЕРАТОРА И ПРЕДПРИЯТИЙ МЕСТНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ .....	1223
<b>Худаярова Мехрангиз Мурадовна</b>	
TURIZMDA INDIVIDUALLASHTIRILGAN XIZMATLAR KONSEPSIYASI VA TAJRIBA TURIZMINING NAZARIY ASOSLARI.....	1230
<b>Raxmatov Aziz Tolipovich</b>	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK EKSTERNALIYALARNI TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1235
<b>Smaylova Zarafshan</b>	
XALQARO STANDARTLARDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI .....	1239
<b>Abdunazarov Dilshoda Akromovna</b>	



METALLURGIYA SANOATIDA EKOLOGIK TOZA TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH: MAQSADGA MUVOFIQLIGI VA NATIJALARI .....	1244
Karimov Ma'ruf Ixtiyorovich	
HUDDIY IQTISODIY O'SISH OMILLARINING EKONOMETRIK TAHLILI: SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA .....	1248
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Normurodov Asliddin Alijon o'g'li	
INDUSTRIAL RIVOJLANISHNING IQTISODIY VA EKOLOGIK OQIBATLARI .....	1258
Ataniyazova M.B.	
OLIY TA'LIM RAQOBATBARDOSHLIGINING TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI ROLI .....	1263
Nishonov Dilshod Shamsidinovich	
СИСТЕМА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ КАК КЛЮЧЕВОЙ ЭЛЕМЕНТ ФОРМИРОВАНИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭКОНОМИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....	1269
Махмутходжаева Луиза Сайфуллоевна	
IQTISODIYOTDA "YASHIL" MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI .....	1274
Risqibekova Nozimaxon	
THE ROLE OF DIGITAL MARKETING IN BOOSTING TOURISM-RELATED BUSINESSES .....	1280
Farrukh Mamadiyurov Shukhratovich	
MINTAQA IQTISODIY BARQARORLIGINI BAHOLASH INDIKATORLARI VA USLUBLARI .....	1284
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich	
MAJOR INFLATIONARY FACTORS IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN AND ANTI-INFLATION POLICIES .....	1290
Koshanov Abdimurat Azat uli, Oralbaeva Diana Mukhit qizi	
ЦИФРОВАЯ ЭКОСИСТЕМА СОВРЕМЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА: МОДЕЛИ, МЕХАНИЗМЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ .....	1296
Бекова Азиза Алимовна	
SOLIQ MAJBURIYATLARINI HISOBGA OLISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	1301
Abdullayev Abror Bozarboyevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AKSIZ SOLIINING FISKAL VA IJTIMOYIY ROLI .....	1308
Abdulxayeva Shaxnoza Muxammadiyevna	
MINTAQAVIY IQTISODIYOTDA AGROTURIZMNI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI .....	1314
Egamberdiyeva Umriniso Tursunqulovna, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
OLIY TA'LIMDAGI RAQAMLI YECHIMLARNING SAMARADORLIGI VA UNI BAHOLASH MEZONLARI .....	1320
Abduraxmanova Malika Abdujaparovna	
SURXONDARYO VILOYATI SHAROITIDA AKVAPARK VA SUZISH HAVZALARI QURILISHINI TAHLIL QILISH HAMDA TAVSIYALAR BERISH .....	1326
Olimjonov Firdavs	
FISKAL FEDERALIZM NAZARIYASI VA UNING AMALIY AHAMIYATI .....	1332
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Alijonov Ahadjon Hasanboy o'g'li	
OILAVIY MUHITDA QIZLARNING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH: IJTIMOYIY PEDAGOGIK YONDASHUV (O'ZBEKISTONDA) .....	1336
Qayimova Maftuna Tursunovna	
«YASHIL IPOTEKA» AMALIYOTI: XORIJIY TAJRIBALAR .....	1340
Berdinazarov Zafar Ulashovich, Xayitov Bobirbek Ergashevich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРОЦЕССОВ ПРИНЯТИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА. ФОРМИРОВАНИЕ НОВОЙ ПАРАДИГМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ .....	1344
Бурханова Шахноза Бобировна	
QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI KENGAYTIRISH MASALALARI .....	1353
Abduvoxidova N.G., Karimova A.M.	
ISHLAB CHIQRISHNI DIVERSIFIKATSIYA ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ASOSIY MECHANIZMLARI .....	1359
Mirzarayimova Feruza Zokirjon qizi, Levakov Izzatulla Nematillayevich	



TO'G'RI SOLIQLARNI UNDIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI .....	1365
<b>Xo'jaqulov Ramshid Yunusovich</b>	
O'ZBEKISTONDA BANK TIZIMINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	1372
<b>Kasimova Zilolaxon Botir qizi</b>	
INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYALASHTIRISHNING IQTISODIY MAZMUNI VA TAMOYILLARI .....	1379
<b>Gafurov Ma'ruf Xakimovich</b>	
KREDIT RISKI VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI .....	1383
<b>Karimova Shohida Zaylobiddinovna</b>	
SURXONDARYO VILOYATI TUMANLARINING IQTISODIY MODERNIZATSIYASI: ASOSIY OMILLAR VA TENDENSIYALAR.....	1389
<b>Qosimova Nodira Saidovna</b>	
BUXORO VILOYATIDA YASHIL AGROTURIZM KONSEPSIYASINI SHAKLLANTIRISH .....	1395
<b>Umurov J.</b>	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA DAROMADLAR VA ULARNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI.....	1403
<b>Ostonaqulova Gulchehraxon Muhammadyoqub qizi</b>	





rentabelligini oshirish, yangi moliyaviy instrumentlar va xizmatlar joriy etish, risklarni boshqarish tizimini kuchaytirish banklar moliyaviy barqarorligining asosiy garoviga aylanmoqda.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-may kuni qabul qilingan "2020 — 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son'li Farmonida ham "qimmatli qog'ozlar bozorida banklarning operatsiyalarini faollashtirish, tijorat banklari tomonidan korporativ obligatsiyalarni chiqarish va joylashtirish hamda boshqa instrumentlar uchun ma'muriy to'siqlarni kamaytirish, bir vaqtning o'zida nazoratni kuchaytirish, banklarning qimmatli qog'ozlarini xalqaro kapital bozoriga chiqarish bo'yicha huquqiy bazani yaratish" lozimligi alohida ta'kidlab o'tilgan. Mazkur islohotlar natijasida banklar daromad manbalarining kengayishi, kapitalning xorijiy bozorlarga chiqishi, investitsion jozibadorlikning oshishi va bank xizmatlari sifatining yaxshilanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Ushbu jarayonlar tijorat banklari oldiga yangi strategik vazifalarni qo'yib, ularning bozor iqtisodiyotidagi rolini yanada kuchaytiradi [1].

Shu nuqtayi nazaridan, tijorat banklari daromadlarining zamonaviy tarkibi, ularga ta'sir etuvchi omillar, daromadlarni shakllantirishning innovatsion mexanizmlari hamda daromad bazasini kengaytirish strategiyalarini o'rganish ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, ushbu maqolada tijorat banklari daromadlari tarkibini shakllantirish jarayonlari, ularning samaradorligini oshirish yo'llari, raqamli transformatsiya va kapital bozorlari imkoniyatlaridan foydalanish orqali daromad bazasini kengaytirish mexanizmlari ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilinadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarining daromadlari tarkibini shakllantirish, ularning barqarorligini ta'minlash va samaradorligini oshirish masalasi iqtisodiyotning turli bosqichlarida doimo ilmiy izlanishlarning markazida bo'lib kelgan. Jahon moliya bozorlaridagi o'zgaruvchanlik, raqobatning kuchayishi, raqamli moliyaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda bank xizmatlari turlarining kengayib borayotgani ushbu yo'nalish bo'yicha nazariy va amaliy tadqiqotlarning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Shu bois tijorat banklari daromadlarini shakllantirishga doir ilmiy manbalar, xalqaro tajribalar, iqtisodiy qonuniyatlar hamda O'zbekiston bank tizimida olib borilayotgan islohotlar mazkur tadqiqotning mustahkam ilmiy-nazariy asosini yaratadi. Xususan, rivojlangan davlatlar olimlari tomonidan bank daromadlarining tuzilishi, foizli va foizsiz daromadlarning nisbatini boshqarish, risk omillarining daromadlilikka ta'siri hamda diversifikatsiya strategiyalarining samaradorligi keng o'rganilgan.

Jumladan, A. Saunders, M. Cornettlar bank daromadlariga ta'sir etuvchi risklar — kredit, likvidlik va bozor risklari daromadlilik bilan o'zaro bog'liq ekanini ta'kidlaydi [2]. F. Mishkin bank daromadlarining barqarorligi pul-kredit siyosati samaradorligini belgilashini ilmiy asoslaydi [3]. P. Rose, S. Hudginslarning asarlarida banklar daromadlarining ko'payishida xizmatlar diversifikatsiyasining o'rni keng yoritilgan [4]. R. Levine bank tizimi rivoji iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri ekanini asoslab bergan [5]. A. H. Demirgüç-Kunt va Huizinganing ishlarida esa bank foydasiga ichki boshqaruv ko'rsatkichlari va makroiqtisodiy omillar sezilarli ta'sir qilishi ko'rsatiladi [6]. A. Berger, C. Bouwmanlar bank likvidligini to'g'ri boshqarish daromad barqarorligining muhim omili ekanligi ilmiy isbotlangan [7]. P. Athanasoglou, M. Delis, C. Staikouraslari tomonidan foiz marjasi, xarajatlarni boshqarish va kredit portfeli sifati rentabellikka eng kuchli ta'sir etuvchi omillar ekanligi qayd etiladi [8].

Mahalliy olimlardan A. Karimov bank islohotlari daromad manbalarini kengaytirishga kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatishini ilmiy asoslagan [9]. Yana bir mahalliy olim N. To'laganova foizsiz daromadlarning bank barqarorligidagi strategik ta'sirini o'rganib chiqqan [10].

Umuman olganda, mavjud ilmiy tadqiqotlar tijorat banklari daromadlarini shakllantirish va boshqarish jarayoniga risklarni boshqarish, diversifikatsiya, makroiqtisodiy omillar, aktivlar sifati, likvidlik, foiz siyosati va boshqaruv samaradorligi kabi omillar kompleks ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Shu bois daromadlar strukturasi optimallashtirish zamonaviy bank boshqaruvining eng muhim strategik yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani tayyorlashda me'yoriy-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlarining rasmiyligi, shuningdek, ulardagi iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlari qiyosiy va tanqidiy tahlil qilingan. Mavzuni o'rganish davomida umumiy iqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash hamda statistik usullardan foydalanilgan.


## TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarining daromadlari va ularning manbalarini bank faoliyatiga qarab, ya'ni tijorat banklari amalga oshiradigan operatsiyalar nuqtayi nazaridan klassifikatsiya qilish mumkin. Tijorat banklarining daromadi bank

1 <https://lex.uz/docs/-4811025>



faoliyatining kredit berish, diskont faoliyati, trast (ishonch) xizmati ko'rsatish, banklarning kafolatlash faoliyati, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar, depozitlarni qabul qilish va ularning hisobini yuritish bilan bog'liq faoliyat, boshqa banklar bilan vakillik munosabatlariga asoslangan faoliyat, noan'anaviy xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq faoliyat hamda boshqa faoliyat turlari natijasida shakllanadi. Banklarning asosiy faoliyati bank biznesi deb atalib, uning tarkibiga kiruvchi turli xil biznes turlari bank daromadlarining shakllanish manbalari bo'lib hisoblanadi (1-rasm).




1-rasm. Bank biznesining tarkibiy tuzilishi hamda shakllanishi<sup>2</sup>

Ushbu faoliyatlarning har bir turi bank ushbu operatsiyalarda qanday vaziyatda qatnashishiga qarab ajralib turadi. Yuqoridagi faoliyat turlarining ba'zilari aktiv operatsiyalarga kirsar, ba'zilari esa passiv operatsiyalarga kiradi. Daromadlar har bir faoliyat turidan turlicha kelishi mumkin. Aktiv operatsiyalardan keladigan daromad umumiy daromadlarning asosiy salmog'ini tashkil etadi.

Tijorat banklarining barcha ko'rinishlardagi daromadlarini uch guruhga bo'lish mumkin:

1. foizli daromad;
2. foizsiz daromad, komission (vositachilik) ko'rinishda;
3. boshqa daromadlar, qimmatli qog'ozlar bozoridagi daromadlar, bank qimmatli qog'ozlarining qayta baholanishi, olingan jarima, penya va boshqalar.

Barcha ko'rib o'tilgan daromadlar chiqimlarni qoplay olishi, xavfni bartaraf etishi va foyda keltirishi zarur. Ularning umumiy xususiyati shundan iboratki, baholanish tavsifoti bozor sharoitidan kelib chiqib, talab va taklifga mutanosibdir. Shu bilan bir qatorda, daromadning har bir ko'rinishi o'zining alohida xususiyatiga ega (2-rasm).



2-rasm. Bank daromadlarining tarkibiy tuzilishi<sup>3</sup>

<sup>2</sup> <https://lex.uz/docs/-4811025>

<sup>3</sup> Muallif ishlanmasi




Ssuda foizi kreditlash jarayonining ajralmas unsuri bo'lib, tijorat banklari faoliyatida alohida iqtisodiy qiymatga ega hisoblanadi. Ssuda foizining shakllanishi kreditning mazkur ko'rinishiga, kredit tashkiloti turiga, qarzni muddati va maqsadiga hamda qo'llaniladigan hisoblash usuliga qarab differensiallashadi. Xususan, foizlarning turlanishida kredit shakllari bo'yicha (tijorat, bank, iste'mol krediti bo'yicha foizlar), kredit tashkilotlari bo'yicha (Markaziy bankning hisob stavkasi, tijorat banklari foizlari, lombard foizlari), kredit muddati bo'yicha (qisqa muddatli ssudalar uchun pul bozori stavkalari, uzoq muddatli qarzl uchun obligatsion foiz stavkalari) hamda ssuda ko'rinishlariga ko'ra (aylanma mablag'larni overdraft bo'yicha ssudalash, vekselni hisobga olish, maqsadli ssudalar bo'yicha) tasniflash muhim o'rin tutadi. Bundan tashqari, foizlarni hisoblash usullari — oddiy va murakkab foizlar, odatiy va konkret foiz stavkalari bo'yicha farqlanishi nazarda tutiladi.

Ssuda foizining hajmi kredit shartnomasining turidan qat'i nazar, tijorat bankining kredit resurslari qiymati va belgilangan foiz marjasiga asoslanib shakllantiriladi. Bunda kredit resurslari qiymatining bozor bahosidan emas, balki aniq va real bahodan kelib chiqib belgilanishi lozim. Resurslarning real qiymati bilan bozor qiymati o'rtasidagi farq majburiy zaxiralar me'yorlari, foizli xarajatlarning bank tannarxiga o'tkazilish tartibi hamda amaldagi soliqqa tortish mexanizmlari orqali qoplanadi. Tijorat banki uchun belgilangan foiz marjasi uning umumiy xarajatlarini qoplay oladigan va yetarli darajada foyda keltiradigan darajada bo'lishi zarur. Shu bilan birga, kelishilgan foiz stavkasi inflyatsiya sur'atlari hamda bankning kreditlashdagi xavf darajasini ham inobatga olishi kerak.

Komission (vositachilik) to'lovlari esa bank xizmatlari va operatsiyalari uchun undiriladigan mukofot to'lovlari bo'lib, ularning miqdori xizmat ko'rsatish tannarxi va bankning belgilangan foyda marjasidan kelib chiqib shakllantiriladi. Biroq bozor iqtisodiyoti sharoitida mazkur to'lovlarning miqdori talab va taklif nisbatiga ko'ra o'zgarib, tannarxdan yuqori yoki past bo'lishi mumkin. Shu sababli bank xizmatlari tannarxining real hajmini doimiy nazorat qilish va xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish maqsadida xarajatlarni optimallashtirish masalalari dolzarbligicha qolmoqda.

Daromad manbalari barqarorlik darajasiga ko'ra barqaror va nobarqaror guruhlarga ajratiladi. Barqaror daromad manbalariga foizli daromadlar va bank tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun undiriladigan foizsiz daromadlar kiradi. Nobarqaror daromadlar esa qimmatli qog'ozlar ikkilamchi bozorida operatsiyalar natijasida olingan daromadlar, kutilmagan moliyaviy natijalar hamda ayrim hollarda valyuta operatsiyalaridan olinadigan daromadlarni o'z ichiga oladi. Banklar barqaror rivojlanishining asosiy sharti sifatida barqaror daromad manbalarining ulushini oshirish va nobarqaror daromadlarning salmog'ini minimal darajada ushlab turish talab etiladi.

Tijorat banklarining kredit qo'yilmalari va depozitlar hajmining izchil o'sishi, shuningdek, foiz marjasining kengayib borishi bank tizimidagi ijobiy tarkibiy o'zgarishlarning asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. 2024-yil yakuni bo'yicha kreditlar va depozitlar qoldig'ining yil davomida mos ravishda 13 foiz va 28 foizga o'sishi bank sektorida resurs bazasining mustahkamlanayotganidan dalolat beradi. Depozitlar va kreditlar dinamikasidagi ushbu o'sish sharoitida tijorat banklarining sof foizli daromadlari ham ortgan bo'lib, 2024-yil yakuniga kelib ularning umumiy hajmi 34,2 trln so'mni tashkil etdi. Mazkur ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 18 foiz yuqori bo'lib, foiz siyosati samaradorligi va bank aktivlari rentabelligining oshganligini ko'rsatadi (3-rasm).



3-rasm. Tijorat banklari kredit qo'yilmalarining bank daromadliligiga ta'siri



Ichki valyuta bozorida esa 2024-yilda xorijiy valyuta taklifining talabga nisbatan yuqori shakllanishi kuzatildi. Tijorat banklarining valyuta birjasi orqali sof xarid qilgan xorijiy valyutalari 10,4 mlrd AQSh dollarini tashkil etib, bu 2023-yilga nisbatan 16 foizga kamayish bilan ifodalanadi. Jismoniy shaxslarning banklarga sotgan xorijiy valyutasi miqdori sotib olingan valyutaga nisbatan 6,7 mlrd AQSh dollarga ko'proq bo'lib, ushbu tafovutning ikki barobardan ziyod oshishi ichki valyuta oqimlarida taklifning sezilarli ustunligini aks ettiradi.

Shuningdek, 2024-yilda bank tizimida rentabellik ko'rsatkichlarining ma'lum darajada pasayishiga qaramay, umumiy moliyaviy barqarorlik mo'tadil darajada saqlanib qoldi. Xususan, likvidlilik ko'rsatkichlarining yaxshilanishi, fond bozori tebranuvchanligining kamayishi va boshqa tizimli omillar ta'siri ostida  $\Delta$ CoVaR ko'rsatkichi keskin o'zgarishsiz qolgan.  $\Delta$ CoVaR indikatorining o'rtacha trendda shakllanishi bank tizimida ehtimoliy zaifliklar mavjud bo'lsa ham, tizimli xatarlarning kuchayishi bilan bog'liq xavotirlar o'sishining kuzatilmaganini anglatadi.

Bundan tashqari, 2024-yilda kredit bozori holatini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlarda ham ijobiy tendensiyalar qayd etildi. Xususi sektorga yo'naltirilgan kreditlarning YaIMga nisbatan ulushi 31 foizni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 2 foiz bandga kamaygan bo'lsa-da, ushbu pasayish banklar majburiyatlari va kapitalining mutanosib o'sishi hisobiga tizimli xavflarning oshishiga olib kelmadi. Jismoniy shaxslarga berilgan kreditlarning aholi ixtiyoridagi daromadga nisbatan ko'rsatkichlari ham barqarorlashgan. 2025-yil 1-yanvar holatiga bank tizimi bo'yicha majburiyatlar va kapital o'sish sur'atlari 18 foizni tashkil etgan bo'lib, banklarning kapitallashuv darajasi va majburiyatlarni qoplash salohiyati o'rtasidagi muvozanat saqlanib qolganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, 2024-yilda bank sektorida kuzatilgan kreditlash hajmlarining kengayishi, resurs bazasining mustahkamlanishi, foizli daromadlarning o'sishi, valyuta bozori taklifining ko'payishi va moliyaviy barqarorlik indikatorlarining barqaror holatda saqlanishi tijorat banklarining daromadlari shakllanishi uchun qulay sharoit yaratganini ko'rsatadi. Ushbu jarayonlar bank daromadlarining tarkibini optimallashtirish, resurslardan samarali foydalanish va tijorat banklari faoliyatining moliyaviy barqarorligini yanada kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, 2024-yilda tijorat banklari faoliyatida aholi depozitlari va jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar dinamikasida sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. Aholi omonatlari hajmining o'sish sur'ati jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'i o'sishidan ancha yuqori bo'ldi.

Xususan, tijorat banklari tomonidan aholi sektoriga yo'naltirilgan kreditlar qoldig'i 2024-yil yakuniga kelib 177,5 trln so'mga yetib, o'tgan yilga nisbatan 20 foizga oshgan bo'lsa, jismoniy shaxslarning omonatlari 42 foizga o'sib, 122,4 trln so'mni tashkil etdi. Ushbu tafovut aholi mablag'larining bank tizimiga bo'lgan ishonchi ortib borayotganini, shuningdek, resurs bazasining tarkibiy mustahkamlanishini ko'rsatadi.

Biroq foizli xarajatlarni qoplash bilan bog'liq moliyaviy ko'rsatkichlarning yomonlashgani tijorat banklari rentabelligiga bosimni kuchaytirgan. 2024-yil yakunida banklarning soliq to'langunga qadar sof foydasining jami foizli xarajatlarga nisbati 12 foizni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 14 foiz bandga kamaygan. Bu holat foiz xarajatlarning daromadlar o'sish sur'atlariga nisbatan yuqoriroq bo'lganini anglatadi.

Foizli xarajatlarning ortishi ham sezilarli ko'rsatkichga ega bo'lib, banklar tomonidan 2024-yilda amalga oshirilgan foiz to'lovlari hajmi 77,7 trln so'mni tashkil etdi va bu 2023-yilga nisbatan 35 foizga ko'pdir. Shu bilan birga, soliq to'langunga qadar bank tizimi bo'yicha jami sof foyda miqdorining 36 foizga kamayib, 2024-yil yakunida 9,7 trln so'mga tushib qolganligi rentabellikning pasayishiga ta'sir etuvchi omillarni yanada muhimlashtiradi.

Foydaning qisqarishi, avvalo, aktivlar bo'yicha yo'qotishlarni qoplash uchun zaxira shakllantirish darajasining oshirilgani bilan izohlanadi. Bu esa kredit risklarining kuchayishi, aktivlar sifatining pasayishi yoki banklarning potensial yo'qotishlarga nisbatan ehtiyotkorlik strategiyalarini kuchaytirganidan dalolat beradi.

Umuman olganda, 2024-yil bank faoliyatida resurs bazasining kengayishi, depozitlar oqimining o'sishi va kredit portfelining kattalashishi ijobiy tendensiyalarni aks ettirgan bo'lsa-da, foiz xarajatlarning keskin oshishi va sof foydaning kamayishi tijorat banklarining daromadlar tarkibi va rentabelligini optimallashtirish zaruriyatini kuchaytirmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot davomida tijorat banklarining daromadlari tarkibi, ularning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar hamda daromad barqarorligini ta'minlash mexanizmlarining nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, bank daromadlari foizli va foizsiz manbalardan shakllanadi va mazkur manbalarning barqarorligi bank faoliyatining umumiy moliyaviy ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Xalqaro tadqiqotchilar (A. Saunders, M. Cornett, F. Mishkin, P. Rose, S. Hudgins, R. Levine, A. Demirgüç-Kunt, A. Berger, C. Bouwman) tomonidan bank daromadlilikining asosiy determinantlari sifatida kredit risklari, likvidlik, bozor sharoitlari, xizmatlar diversifikatsiyasi, foiz marjasi, boshqaruv sifati, makroiqtisodiy muhit va moliyaviy barqarorlik e'tirof etilgan. Mahalliy olimlar (A. Karimov, N. To'laganova) esa O'zbekiston sharoitida



bank daromadlariga xizmatlar diversifikatsiyasi, foizsiz daromadlarning ulushi, islohotlarning chuqurlashuvi va bozor mexanizmlarining kuchayishi sezilarli ta'sir ko'rsatishini ilmiy asoslagan.

Amaliy ko'rsatkichlar tahlili shuni ko'rsatdiki, 2024-yilda tijorat banklarining kredit va depozitlar hajmi ortib, resurs bazasi mustahkamlandi. Aholi omonatlari 42 foizga, jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar esa 20 foizga o'sgan. Sof foizli daromadlarning 18 foizga o'sishi banklarning foiz siyosati samaradorligini aks ettirmoqda. Biroq foizli xarajatlarning 35 foizga oshishi, soliqlardan oldingi foydaning 36 foizga kamayishi hamda aktivlar bo'yicha zaxiralar hajmining oshishi rentabellik darajasini pasaytirgan.

Valyuta bozorida taklifning talabdan yuqori bo'lishi, tijorat banklarining sof valyuta xaridlari hajmining kamayishi va jismoniy shaxslarning valyuta sotish bo'yicha faollashuvi ichki moliyaviy oqimlarda muhim tarkibiy o'zgarishlar sodir bo'lganidan dalolat beradi. Biroq  $\Delta$ CoVaR ko'rsatkichining barqaror shakllanishi tizimli moliyaviy xatarlarning oshmaganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, tijorat banklari daromadlarining barqarorligini ta'minlash uchun foizli daromadlarni optimallashtirish, foizsiz daromadlarning ulushini oshirish, xizmatlar diversifikatsiyasini kuchaytirish, risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish hamda banklarning bozordagi raqobatbardoshligini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot davomida quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq. Foizli daromadlarning barqarorligini oshirish uchun kredit portfeli sifatini yaxshilash zarur. Kredit riskini baholash mexanizmlarini kuchaytirish, kechikkan kreditlar ulushini qisqartirish va kreditlar bo'yicha yo'qotishlarga zaxiralar siyosatini optimallashtirish rentabellikni oshiradi. Foizsiz daromadlar ulushini kengaytirish maqsadida bank xizmatlari diversifikatsiyasini kuchaytirish lozim. Elektron to'lovlar, mobil bank xizmatlari, konsalting, treyding va investitsion bank xizmatlari kabi yo'nalishlarni rivojlantirish barqaror daromad bazasini shakllantiradi.

Foiz marjasini saqlab qolish uchun resurs bazasining arzon va barqaror manbalarini ko'paytirish kerak. Aholi depozitlarini rag'batlantirish, korporativ mijozlar bilan uzoq muddatli depozit shartnomalarini kengaytirish va banklararo resurslardan foydalanishni samaralashtirish tavsiya etiladi.

Valyuta operatsiyalaridan olinadigan daromadlarni barqarorlashtirish uchun valyuta riskini boshqarish mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Hedging instrumentlaridan foydalanish va valyuta pozitsiyasini optimallashtirish valyuta bozorida no-barqarorlikni kamaytiradi.

Banklarning operatsion xarajatlarni kamaytirish hisobiga rentabellikni oshirish mumkin. Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, filiallar tarmog'ini optimallashtirish va avtomatlashtirilgan jarayonlar ulushini oshirish operatsion xarajatlarni qisqartiradi.

Aktivlarni diversifikatsiya qilish orqali daromad manbalarini kengaytirish lozim. Qimmatli qog'ozlar bozorida faol ishtirok etish, korporativ obligatsiyalar chiqarish va investitsion portfelni diversifikatsiya qilish bank daromadlarini ko'paytiradi.

Aholi omonatlarini jalb etish bo'yicha samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqish zarur. Foiz stavkalarini moslashtirish, omonatchilar uchun bonus dasturlarini joriy etish va omonatlarning himoyalanganligini kuchaytirish resurs bazasi barqarorligini ta'minlaydi.

Bank tizimida raqobatni kuchaytirish uchun innovatsion bank mahsulotlarini taklif etish muhim. Neobanklar, fintech kompaniyalari bilan hamkorlik va yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish banklarning daromadlarni shakllantirish strategiyasini takomillashtiradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020 — 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4811025>
2. Saunders, A., Cornett, M. Financial Institutions Management: Risks and Cases. McGraw-Hill, 2019.
3. Mishkin, F. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. Pearson, 2018.
4. Rose, P., Hudgins, S. Bank Management and Financial Services. McGraw-Hill, 2019.
5. Levine, R. Financial Development and Economic Growth. Journal of Economic Literature, 1997.
6. Demirgüç-Kunt, A., Huizinga, H. Determinants of Commercial Bank Profitability. World Bank WP, 1999.
7. Berger, A., Bouwman, C. Bank Liquidity Creation and Financial Crisis. Review of Financial Studies, 2009.
8. Athanasoglou, P., Delis, M., Staikouras, C. Determinants of Bank Profitability. Journal of Financial Decision Making, 2006.
9. Karimov A. O'zbekiston bank tizimi rivojlanishi va modernizatsiyasi. Toshkent, 2021.
10. To'laganova N. Tijorat banklari daromadlarini shakllantirish omillari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2020.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2025. № 12

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>